

QO'RG'ON DOSTONCHILIK MAKTABI VA "YAKKA AHMAD" DOSTONI VARIANTLARINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20108872>

Oygul Axmedova

*Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti professori,
"Doston ijrochiligi" kafedrasini mudiri, filologiya fanlari nomzodi.*

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qo'rg'on dostonchilik maktabining o'zbek baxshichilik san'atidagi o'rni, uning shakllanish tarixi hamda badiiy-uslubiy xususiyatlari tahlil etiladi. Xususan, ushbu maktab vakillari ijodida muhim o'rin tutgan "Yakka Ahmad" dostoni misolida epik an'analarning rivoji, syujet va motivlarning transformatsiyasi yoritiladi. Maqolada dostonning Ergash Jumanbulbul o'g'li hamda Rahmatilla Yusuf o'g'li variantlari qiyosiy-tipologik metod asosida tahlil qilinib, ular o'rtasidagi badiiy, g'oyaviy va obrazlar tizimidagi farqlar ochib beriladi.

Shuningdek, "Yakka Ahmad" dostonining Alpomish bilan o'xshash va farqli jihatlari, romanik doston sifatidagi o'ziga xosligi hamda epik qahramon xarakterining talqinidagi o'zgarishlar ko'rsatib o'tiladi. Doston tarkibidagi Baxil pari, Sursuluv pari, Qaldirg'och kabi obrazlarning funksional roli hamda epik tafakkurdagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi.

Maqolada Qo'rg'on dostonchilik maktabining bugungi kunda faqat yozma manbalarda saqlanib qolgan ijodiy merosini qayta tiklash, baxshilar ijro mahoratini o'rganish va uni zamonaviy folklorshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish dolzarb masala sifatida ilgari suriladi.

Kalit so'zlar

Qo'rg'on dostonchilik maktabi, namoyanda, repertuar, "Yakka Ahmad" dostoni, epik an'ana, doston, baxshi.

Abstract

This article examines the role of the Qorgon epic school in Uzbek baxshi (oral epic) tradition, its historical formation, and its distinctive artistic and stylistic features. In particular, using the epic Yakka Ahmad as a case study, the development of epic traditions, as well as the transformation of сюжет lines and motifs, are analyzed.

The study comparatively analyzes the variants performed by Ergash Jumanbulbul o'g'li and Rahmatilla Yusuf o'g'li through a comparative-typological

method, revealing differences in their artistic structure, ideological content, and system of characters.

In addition, similarities and differences between “Yakka Ahmad” and the epic Alpomish are identified, highlighting its specific features as a romantic epic and changes in the interpretation of the heroic character. The functional roles of characters such as Baxil Pari, Sursuluv Pari, and Qaldirg’och are also analyzed within the framework of epic thinking.

The article emphasizes the importance of re-examining and revitalizing the creative heritage of the Qorgon epic school, which today survives mainly in written sources, and underscores the need to study baxshi performance skills from the perspective of modern folklore studies.

Keywords

Qorgon epic school, representatives, repertoire, Yakka Ahmad epic, epic tradition, epic (doston), baxshi.

Qo’rg’on dostonchilik maktabi folklorshunoslar tomonidan eng ko’p o’rganilgan, katta munozaralarga sabab bo’lgan maktablardan biridir. Aynan o’zbek baxshichilik san’atini butun dunyoga ma’lum va mashhur qilgan maktab ham Qo’rg’on dostonchilik maktabidir. Shunga qaramay bugungi kunda bu maktab ijodiy merosi faqat manbalarda saqlanib qoldi. Uni qayta o’rganish, baxshilarining ijro mahoratini tiklash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Qo’rg’on dostonchilik maktabi haqida T.Mirzayev⁴ning “Xalq baxshilarining epik repertuarlari”, M.Qo’shmoqov⁵ning “Baxshilar xazinasi”, “Chechanlikda so’zga suvdayin oqib” va M.Murodovning “O’zbek baxshilari haqida” kabi adabiyotlar va boshqa mualliflarning ham ilmiy va amaliy risolalarida bir qancha qiziqarli va muhim ma’lumotlar keltirilgan.

“Qo’rg’on dostonchilik maktabining eng so’nggi talantli vakillari Ergash Jumanbulbul o’g’li (1868-1937) va Muhammadqul Jonmurod o’g’li Po’lkan (1874-1941) dan «Alpomish», «Yakka Axmad», «Oysuluv», «Kuntug’mish», «Qironxon», «Yusuf bilan Ahmad», «Alibek bilan Bolibek». «Ernazar», «Go’ro’g’lining tug’ilishi», «Yunus pari», «Misqol pari», «Gulnor pari», «Xushkeldi», «Hasanxon», «Chambil qamali», «Dalli», «Ravshan», «Avazxon», «Qunduz bilan Yulduz», «Bo’tako’z», «Xoldorxon», «Xilomon», «Berdiyot otaliq», «Zamonbek», «Xidirali elbegi» kabi ko’plab dostonlar yozib olingan.

⁴ Mirzaev T. Tanlangan asarlar – Toshkent: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2026; Шу муаллиф. Эпос и сказитель. – Ташкент: Фан, 2008;

⁵ Қўшмоқов М. Чечанликда сўзга сувдайин оқиб. Тошкент. 1978.; Шу муаллиф. Бахшилар хазинаси. – Тошкент: 1981.

XIX asrning o'rtalarida Qo'rg'on qishlog'ida yashagan yetti patriarxal oilada yigirmadan ortiq baxshi bo'lgan. Ergash shoir otasi Jumanbulbulning shogirdi bo'lgan. Jumanbulbulning ustози Bo'ron shoir (Kichik Bo'ron) bo'lib, uning ustози Bo'ron baxshi (Katta Bo'ron)dir. Po'lkan shoir Jossoqning o'n ikkinchi shogirdi bo'lib, Jossoqning ustози Mulla Abduqodirdir. Mulla Abduqodirga otasi Bo'ron baxshi (Katta Bo'ron) ustozlik qilgan. Katta Bo'ronning akasi Jolmon baxshi xam XVIII asrning dongdor kuychilaridan bo'lgan. Og'zaki ma'lumotlarga qaraganda, Qo'rg'on dostonchilik maktabining asoslarini Ergash Jumanbulbul o'g'lining otabobolari qurganligi taxmin qilinadi va u XVII-XX asrlarda yashagan 40 dan ortiq baxshilarni birlashtiradi. Bu baxshilar asosan ishqiy - romanik dostonlarga ko'proq e'tibor berganlar. O'ziga xos chuqur lirizm, chiroyli tasvirlar, she'riy bezaklar, tafsilotlarni atroflicha ishlash, noziklik va jimjimadorlik Qo'rg'on dostonchilik maktabi uslubining asosiy belgilaridir. Bu xol uning vakillari kuylagan asarlarda yozma va og'zaki adabiyot an'analari o'ziga xos ravishda chatishib kelganligini ko'rsatadi"⁶.

Folklorshunos olim M.Qo'shmoqovni qayd etishicha, Qo'rg'on dostonchilik maktabining bobokaloni – Yodgor baxshi Usta Qulay o'g'li hisoblanadi.

Qo'rg'on dostonchilik maktabiga mansub baxshilar repertuarida «Go'ro'g'li» dostonlari asosiy o'rinni tashkil etgan bo'lib, ular ko'proq ana shu turkum dostonlarini kuylaganlar.

“Yakka Ahmad” dostoni Qo'rg'on dostonchilik an'analari asosida XVI asrdan keyin yaratilgan bo'lib, ushbu doston uzoq davrlar mobaynida baxshilar epik an'anasida yashab keldi. Mazkur dostondagi syujet chiziqlari va barcha motivlar deyarli “Alpomish” dostoniga mazmunan o'xshash. Shu bilan birga doston original asar hisoblanadi.

“Yakka Ahmad” dostoni g'oyaviy-stilistik jihatdan qadimiy qahramonlik eposiga nisbatan yangi hodisa bo'lib, romanik dostonlar turiga mansubdir.

Olimlar tomonidan “Yakka Ahmad” dostoni bevosita “Alpomish” ta'sirida yaratilganligi qayd etiladi. Dostonning eng mukammal varianti atoqli xalq shoiri Qo'rg'on dostonchilik maktabining so'ngi nomoyandasi Ergash Jumanbulbul o'g'lidan yozib olingan. Bu va shu tip asarlar xalq dostonchilari orasida ilgari mavjud va mashhur bo'lgan syujetlar asosida yangi-yangi asarlar yaratish tendensiyasi mustahkam o'rin olganligidan va tendensiya epos taraqqiyotida ba'zan muayyan bir bosqichni ham yuzaga keltirganligidan darak beradi.

Xuddi “Alpomish” dostonidagidek, “Yakka Ahmad” da ham aka-uka Qoraxon va Sarixon farzandsiz: “Bizlarda farzand bo'lsa, o'g'il bo'lsa, qo'lqanot bo'lsin; qiz bo'lsa, do'st, mehribon bo'lsin; agar birovi o'g'il bo'lsa, birovi qiz bo'lsa, quda

⁶ O'sh manba. B.41.

bo'laylik,-deb ikkovi yaxshi soatda yaxshi niyat qildi."7 Ular farzand ko'radilar. Qoraxonning o'g'liga Ahmadbek, Sarixonning qiziga Oqbilak deb nom qo'yadilar. Bu o'rinlar "Alpomish" dostoniga aynan o'xshasa-da, "Alpomish" dagidek batafsil va atroflicha ishlanmagan. Qahramonning ajoyib-g'aroyib tarzda tug'ilishi, uning bahodirona yoshligi va nom qozonishi jangovar otni tanlashi va unga erishish bilan bog'liq qahramonlik eposi uchun g'oyat xarakterli motivlar tabiiy ravishda "Yakka Ahmad" da rivojlantirilmaydi.

Akademik To'ra Mirzayevning "Xalq baxshilarining epik repertuari" asarida olimning "Yakka Ahmad" dostoni bo'yicha mulohazalari bildirilgan. Olim dostonidagi obrazlarni, motivlarni "Alpomish" dostoniga nisbatan qiyosiy-tipologik metod bilan tahlil etgan. Shuningdek, bayt misralaridagi qofiyalarga to'xtalib o'tgan. Dostonda mavjud Baxil pari obrazi va uning dostonida tutgan o'rni haqida alohida to'xtalib o'tgan. Shuningdek, bu obrazga o'xshash obrazning "Alpomish" dostonida uchramasligi ta'kidlangan.

Qudalardan birining boshqa yurtga ko'chishi qahramonlik eposi uchun xarakterli motivlardandir. "Yakka Ahmad" da ham o'n ming uyli Do'rmon urug'i Sarixon boshchiligida Eronga ko'chadi.

Bunda aka-uka o'rtasidagi kelishmovchilikka qurg'oqchilik yili ikkalasiga tobe elning suv talashishi sabab bo'ladi. Buning ustiga Qoraxon odamlari Sarixon qizini ta'na qiladilar: "Sen mening bilan qachon barobar bo'lasan, sening xoningning bir qizi bor, uni ham bo'lsa Ahmadjonga olib berganmiz. Sening nimang bor, moli baytalmon bachchag'ar?"8

Shunday motiv "Alpomish" dostonida, jumladan, Egamberdi baxshi variantida ko'zga tashlanadi. Lekin bunda janjal suv tanqisligidan emas, balki bir paytda suvlovga kelgan mollarning qo'shilib ketishidan kelib chiqadi. Ko'chishdagi holatlar, qahramonlarning ruhiy iztiroblari "Alpomish" dostonida keng va batafsil tasvirlanadi. Xususan, Barchinning ko'chishga bo'lgan munosabatiga alohida e'tibor beriladi. "Yakka Ahmad" da esa Oqbilak bu voqealar girdobiga olib kirilmaydi.

Eronga ko'chib borgan Sarixon bilan Kubodshoh o'rtasidagi kelishmovchilik, dastlab, uncha bo'rtib ko'rinmaydi. Kubodshoh Sarixonnikida mehmon bo'lib qaytgach, Oqbilakka sovchi qo'yadi. Bir yilga muhlat olib, Ahmadbekka xat yuboradi. Qur'achilar orqali Ahmadning kelishini va yorini olib ketishi mumkinligini bilganidan keyingina Kubodshoh Oqrabotga qirq zangini, Xonchorboqqa Boboayyor va uning qirq shogirdini qo'yadiki, endi uning dushmanlik niyati ochiq namoyon bo'ladi.

7 Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 14 Жилд. Т.: 2019. Б.19.

8 Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 14 Жилд. Т.: 2019. Б.20.

“Yakka Ahmad” dostonining yana bir varianti Qo’rg’on dostonchilik maktabining boshqa bir vakili Mardi baxshidan yozib olingan. Bu asar voqealar bayoni jihatidan Ergash Jumanbulbul o’g’li varianti bilan aynandir. Farq ularning badiiy ishlanishida.

Mavjud og’zaki ma’lumotlarga ko’ra, “Yakka Ahmad” dostonini Jumanbulbul, uning akasi Jossoq baxshi, Jossoq baxshining shogirdi Po’lkan, o’g’li Jolg’osh baxshilar ham ko’p aytgan. Bu dostonni Ergash Jumanbulbul o’g’li o’z ukasi va shogirdlariga ham o’rgatgan. Bu o’rinda Ergash shoirning yana bir ma’lumoti xarakterlidir. U o’z ukasi Abduhalilning Mirdosh qishlog’ida doston kuylaganini “Tarjimayi hol” dostonida yozar ekan, shunday deydi:

“Yakka Ahmad” dostonini shu kuni aytgan,
Og’ziga hammani, do’stlar qaratgan,
Mast bo’p aytib borayotir qo’shiqni,
Goh yerda kuldirgan, gohda yig’latgan.⁹

Ergash Jumanbulbul o’g’lining “Yakka Ahmad” variantida Ahmad dovyurak, tez qaror qabul qila oluvchi, yori uchun har qanday to’siqlarni yengishga tayyor obraz sifatida gavdalanadi. Xatni olishi bilan otasining qarshiligiga ham qaramasdan yo’lga otlanadi.

“Eshitib ol menday o’g’ling so’zini,
Yor uchun sarg’aytar gulday yuzini.
Men izlayman ketgan shoxning qizini,
Araz urib ketgan jonning o’zini”¹⁰.

Rahmatilla Yusuf o’g’lining “Yakka Ahmad” variantida esa Ahmad qo’rqoq, ikkilanuvchan, behush inson sifatida tasvirlanadi.

“Hey attang-a, nega Kashal bormadim,
Oqbilakoy bilan davron surmadim,
Behushlikda o’zim bilmay, Qaldirg’och,
So’ng Kashallik xabarchini ko’rmadim?
Tegradoshim bir o’y chirmab olibdi,
Karvon bobom uzab ketib qolibdi,
Bundan keyin ne istarim bilmayman,
Shuytib akang lolu hayron bo’libdi”.

Men Kashalga Shoxdorshohning Sarixonga bergan muhlatidan oldin bora olamanmi? Borganda ham o’zim unday ulug’ podsho bilan barobar bo’la olamanmi,-deb dovdirab qoldi. Shunda Qaldirg’och oyim akasining bunday bo’shanligiga achchig’i keldi. Qahramonning ruhiyatida ikkilanish, o’ziga

⁹ Булбул тароналари, 5-жилд-52-б.

¹⁰ Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 14 Жилд. Т.: 2019. Б.22.

ishonmaslik, beqarorlik holatlari namoyon bo'ldi. Epos mantig'iga ko'ra, dostonning bosh qahramoni alplik xislatlariga ega bo'lishi, mard, dovyurak, har qanday qiyinchiliklarga bardosh bera olishi Ergash Jumanbulbul o'g'lining "Yakka Ahmad" variantida Baxil pari deb nomlangan obraz mavjud. Ushbu obraz oldindan Ahmadning boshiga tushadigan shiddatli kurashlardan ogoh etadi. Xususan, Baxiloy degan bir pari har haftada, o'n kunda bir kelib, Qaldirg'ochoy bilan gaplashib ketar edi. Shu pari aytar edi: "Chechang-Oqbilakka sovchi keldi, bir yilga muhlat oldi. Qirq zangi bir rabot qilib, bir bandargohda akangning yo'lini to'sib yotibdi. Undan nari olti kunlik yo'lda Xonchorbog' degan bir joyda Boboayyor qirq shogirdi bilan akangning yo'lini angib yuribdi",-der edi.

Rahmatilla Yusuf o'g'lining "Yakka Ahmad" variantida esa mantiqiy jihatdan Baxil pari obraziga o'xshash Sursuluv pari obrazi dostonga kiritilgan. Ushbu obraz doston voqealari davomida ikkinchi planda. Birinchi planda esa Qaldirg'och obrazi turadi. Bu dostonda Yakka Ahmadning boshiga tushadigan kulfatlardan Qaldirg'ochning o'zi ogoh etadi. Qaldirg'ochga Sursuluv ham, romchi ham hech kim aytmaydi. Uning o'zi biladi. Dostonning aynan mana shu joyida Qaldirg'och kattalarning xangomalariga quloq solgan deyilgan. Demak, agar shunday bo'lsa, Ergash Jumanbulbul o'g'li tomonidan ijro etilgan "Yakka Ahmad" dostoni ushbu variantdan nisbatan oldinroq ijro etilgani hamda ushbu doston xalq xabardor bo'lganligi mantiqiy jihatdan haqqoniy aks etgan. Shuning uchun ham Qaldirg'och syujet rivojidan yaxshi xabardor. Bundan tashqari, Ahmad yo'lda uchragan Sursuluvga qaramadi. Ushbu doston syujeti liniyasida esa buning aksiga guvoh bo'lamiz.

Rahmatilla Yusuf o'g'lining "Yakka Ahmad" dostonida Ernazarxon Do'rmon elining xoni bo'lgan Qoraxondan avval o'sha yurtda xon bo'lgan. Uning Oqiloy degan suyukli yori bo'lgan.

Ergash Jumanbulbul variantida esa Ernazarxon Balx to'ra ekanligi aks etgan. Qirq yigiti bilan ovga chiqqanligi tasvirlangan. Uning yori yo'q. Dostonning so'ngida uning Baxil pariga uylanish motivi aks ettirilgan.

Epos mantig'iga ko'ra, dostonning nihoyasida qahramonlarning murod-maqсадlariga yetishi mantiqan to'g'ri bo'ladi.

"Yakka Ahmad" dostonining Ergash Jumanbulbul variantida ot obrazi berilgan. Ushbu obraz voqealar girdobiga olib kirilgan. Ot xuddi insondek, voqealar rivojida faol harakat qiladi. Xonchorbog'da turgan ot - Bo'zlarlon ayyorni ko'rishi bilan to'rt oyog'ini yerga tirab chinqiradi. Bo'zlarlonning na'ra tortgan oh-u nolasiga, osmon bilan yerlar larzaga keladi. Otning chinqirgan tovushiga tog'lar toqat qilmadi. Jonivor g'ujunga boshini urib, odamday ko'zidan yoshini to'kdi. Ot qancha siltasa ham oyog'i yetmadi. Oxiri: qora yerni tishlab, xuddi odamday

ko'zini yoshladi. Agar Ahmadning yoshligini sinchiklab, o'rganadigan bo'lsak, aynan Ahmad yettiga kirganida Tarlon tug'ilgan edi. Endilikda Tarlon yettiga kirdi. Yetti soni simvolik nuqtayi nazardan sirli degan ma'noni anglatadi. Tarlon oddiy ot emas, u sirli ot. Xuddi insonlardek, insoniy hislarga ega. Dostonning boshqa variantlarida esa o'tning bu qadar faol harakatini uchratmaymiz.

Dam shu damdir, o'zga damni dam dema,

Shukr qilgin, davlatingni kam dema,

Aytadigan maslahating shu bo'lsa,

Bu rabotdan oting irg'ir g'am yema.

O'tning bu rabotdan oshib o'ta olishi, shuningdek, qiyinchiliklarni yengib keta olishi tasvirlangan. Tarlon har qanday qiyinchiliklarni yengishga qodirligini ta'kidlagan.

Ot chopsa, gumburlar tog'ning darasi,

Uzoq biling ikkovining orasi,

Obro' ber, deb o'g'lon qistab boradi,

Ko'rinmaydi Xonchorbog'ning qorasi.

Qahramonning Xonchorbog'ga ketish yo'lidagi mashaqqatli safari badiiy jihatdan yuksak tasvirlangan.

Paydo bo'ldim ikki gavhar donadan,

Ko'tarilib uchdim manzil, xonadan,

O'laman deb, g'am yemayman, ayyorlar,

Armonim shul yolg'iz edim, enadan.

Yuqoridagi misralardan ham ko'rinib turibdiki, Ergash Jumanbulbul o'g'lining "Yakka Ahmad" dostonida bayt misralaridagi qofiyalar bir-biriga mutanosib ravishda tuzilgan. Ergash Jumanbulbul o'g'li qofiya va badiiy san'atlarning tadrijida muvaffaqiyatga ega bo'lgan. Dostonning boshqa variantlarida bu darajaga ko'tarila olmagan.

Yuragimda ko'pdir voyim,

Sabil bo'b manzil joyim,

Mehribon qodir xudoyim,

Madad qil g'arib holimga.

Yig'lay-yig'lay bo'ldim ado,

Jonim bo'lsin senga fido,

Otingdan yo qodir xudo,

Madad qil g'arib holimga.

Bu kabi ijro ijodkorlarga keng qamrovli fikrlarni, epic asarlar syujetlarini ixcham satrlarda aks ettirish imkonini beradi. Chunki xalq og'zaki ijodida shakllangan ramzlar, obrazlar asosida yillar davomida o'quvchi ongida tayyor

tasavvurlar paydo bo'lgan. Shuning uchun baxshilar folklorga xos biror syujetni boshdan-oxir bayon qilib o'tirmay, o'z xulosalarini qisqa va lo'nda ifoda etsa ham o'quvchi avval og'zaki ijod namunasidagi voqeani to'liq ko'z oldiga keltiradi. Bu jarayon individual ijodkorlarga o'z fikrlarini kitobxonga yetkazishda qulaylik yaratadi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Qo'rg'on dostonchilik maktabi o'zbek baxshichilik san'atida alohida o'rin tutgan, yuksak badiiy-estetik tamoyillarga ega bo'lgan epik an'ana hisoblanadi. Ushbu maktab vakillari yaratgan va ijro etgan dostonlar, xususan Yakka Ahmad dostoni, xalq og'zaki ijodining boy imkoniyatlarini, syujet va motivlarning uzluksiz rivojini yaqqol namoyon etadi.

Qiyosiy-tipologik tahlil asosida Ergash Jumanbulbul o'g'li hamda Rahmatilla Yusuf o'g'li variantlari o'rtasida sezilarli badiiy va g'oyaviy tafovutlar mavjudligi aniqlandi. Xususan, bosh qahramon talqinidagi farqlar, obrazlar tizimi, epik motivlarning berilishi hamda badiiy vositalarning qo'llanish darajasi har bir ijrochining individual mahoratini ko'rsatadi. Ergash Jumanbulbul o'g'li variantida epik qahramonga xos mardlik, qat'iyat va faol harakat ustuvor bo'lsa, boshqa variantlarda ruhiy ikkilanish va sustlik unsurlari ko'proq namoyon bo'ladi.

Shuningdek, dostonning Alpomish bilan genetik va tipologik aloqalari aniqlanib, epik an'ana doirasida yangi, romanik xususiyatlarga ega asar shakllanganligi asoslandi. Bu esa xalq dostonchiligida mavjud syujetlar asosida yangi asarlar yaratish jarayoni uzluksiz davom etganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Qo'rg'on dostonchilik maktabi merosini qayta o'rganish, uning ijro an'analari tiklash hamda zamonaviy folklorshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish bugungi kunning dolzarb ilmiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzaev T. Tanlangan asarlar – Toshkent: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2026; Шу муаллиф. Эпос и сказитель. – Ташкент: Фан, 2008;
2. Қўшмоқов М. Чечанликда сўзга сувдайин оқиб. Тошкент. 1978.
3. Қўшмоқов М. Бахшилар хазинаси. – Тошкент: 1981.
4. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 14 Жилд. Т.: 2019.
5. Булбул тароналари, 5-жилд-52-б.
6. AXMEDOVA, O. O 'ZBEK MAROSIM-UDUMLARINING ETNOHUDDUDIY XUSUSIYATLARI.
7. Ахмедова, О. М. (2010). Освещение фольклорных религиозных мотивов в средствах массовой информации (на примере печати и

радиовещания Узбекистана). *Филологические науки. Вопросы теории и практики*, (3), 35-38.

8. Avazova, M. E., & Axmedova, O. M. (2021). TOSHKENT VILOYAT OHANGARON TUMANI YOR YOR QO'SHIQLARINING O'ZIGA XOS POETIKASI. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 196-201.

9. Akhmedova, A. (2021). Historical syncretism of folklore and media. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 335-340.

10. Ахмедова, О. (2026). Соотношение традиции и импровизации в узбекском народном эпосе: Interplay of Tradition and Improvisation in Uzbek Folk Epic. *Journal of national culture*, 2(1), 150-156.